
"YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA MEVALI VA MANZARALI DARAXT KO'CHATLARI EKILDI

Toshloq tumanida Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida mahallalardagi bo'sh joylarga, ko'cha va hiyobonlarga mevali va manzarali daraxt hamda buta ko'chatlari o'tqazilmoqda. Aholi yashash manzillari, korxonalar va tashkilotlar atrofi yashil hududlarga aylantirilmoqda.

Bugun "Yashil makon" umummilliy loyihasining kuzgi mavsumi doirasida Qalacha dahasida mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Unda DXX Marg'ilon shahar bo'limi boshlig'i Oybek Farmonov, tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar ishtirok etib, turli navdagi daraxt ko'chatlarini ekdilar.

Ayni kunlarda Toshloq tumanida barcha tashkilot va korxonalar, mahallalar faollari, nuroniylar va yoshlar ishtirokida "Yashil makon" loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirlari davom etmoqda.

2023-11-28 13:13:25